

## **BIR YOSHGACHA BO'LGAN GO'DAKLARDA O'PKA BRONX DARAXTINING MORFOMETRIYA KURSATKICHLARINI BAHOLASH**

*Sultonov Ravshan Komiljonovich*

*Termiz iqtisodiyot va servis universiteti*

*Tibbiyot kafedrası v/b dotsenti*

**Muammoning dolzarbligi:** Jahon sog'liqni saqlash ma'lumotlariga ko'ra dunyo tibbiyot sohasida bolalar o'limi eng asosiy muammolardan biri bo'lib kelmoqda. Bugungi kunda bolalar o'limi darajasi 1000 ta tirik tug'ilgan bolalarda 15,6% to'g'ri kelishiga qaramasdan bolalar tug'ilishi ko'rsatkichi juda past, yani 9,1% tashkil qilmoqda. [1]

Hozirgi vaqtda traxeya-bronxial daraxtni zararlanishlarida eng ishonchli usul qilib zamonaviy endoskopiya qullanib kelinmoqda, bu bizga bronx daraxtini zararlanish chegaralarini, xolatini va shilliq qavatini yemirilishi haqida axborot bera oladi. [2-3] Lekin morfologik tuzilishi haqida tuliq o'rganilmagan. So'nggi yillarda havoning ifloslanish darajasi sezilarli darajada oshdi va buni tasdiqlovchi ko'plab dalillar mavjud mayda zararlovchi zarrachalar ta'sirida nafas olishni salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Ekologik ta'sirning sog'liqqa ta'siri prenatal davrda havoning ifloslanishiga, ayniqsa o'pka bronx organogeneziga ta'sir qilishi mumkin. [4-5-6].

**Maqsad:** Bir yoshgacha bo'lgan go'daklarda o'pka bronx daraxtini morfometriya tuzilishini baholash.

**Tadqiqot materiallari va usullari:** Tajriba va tadqiqot materiallari Respublika patalogik anatomiya markazida olib borildi. Tajriba 1 yoshgacha bo'lgan 30 nafar bolalar murdasi ustida olib borildi. Tadqiqot uchun chaqaloqlarda nafas tizimi a'zolari sog'lom, lekin yurak porogi va turli jaroxatlanishlar sababli o'lgan bolalardan makropreparatlar olindi. O'rganish maqsadida tajriba materiallari guruhchalarga bo'lib olindi. 1-guruhchaga: 1-28 kungacha bo'lgan 12 nafar, 2-guruhchaga: 1-6 oylik 10 nafar, 3-guruhchaga: 6-12 oylik 8 nafar chaqaloqlar tashkil qildi. Jins bo'yicha farq kuzatilmadi, o'g'il bolalar 18 nafar (60%), qiz bolalar 12 nafarni (40%) tashkil etdi.

**Tekshiruv natijalari:** Tadqiqot uchun nafas sistemasida xech qanday patologiyasi bo'lmagan, asosan yurak porogi va turli xil jaroxatlanishlardan vafot etgan chaqaloqlardan makropreparatlar olindi va barcha bemorlardan (o'pka, bronxlar, yurak, buyrak, jigar, miya) qismlaridan olingan patalogoanatomik materiallar

gistologik, morfometriya tekshiruvlardan o'tkazilgan. Tekshiruvdagi bemorlarni vafot etgan davri buyicha ajratilganida 1-28 kunlik chaqaloqlar 12 nafar (40%), 1-6 oylik esa 10 nafar (33%), 6-12 oylik esa 8 nafar (27%) o'chradi. Bundan tashqari bolalarni tana vazni, bolaning tug'ilishi, ovqatlanishining tabiati, klinikaga kirishdan oldin kasallikning davomiyligi va oqibati, ona tomonidan bo'lgan sabablar inobatga olingan. Tekshiruv uchun barcha chaqaloqlarda ikkala o'pkasida ham asosiy bosh bronx, bo'lak bronxlari, segmentar bronx, subsegmentar bronx va terminal bronxlarning diametrlari o'lchandi.

1-guruhcha chaqaloqlarning asosiy bosh bronxi  $2450 \pm 45$  mkm, yuqori bo'lak bronxi  $1700 \pm 50$  mkm, yuqori segmentar bronxlarda  $1100 \pm 25$  mkm, Subsegmentar bronxlar  $375 \pm 6$  mkm, terminal bronxlar  $185 \pm 11$  mkm, xuddi shunday pastki bo'lak bronx  $1800 \pm 40$  mkm, pastki segmentar bronxlarda  $1200 \pm 103$  mkm, pastki subsegmentar bronxlar  $900 \pm 25$  mkm, pastki terminal bronxlarda esa  $270 \pm 6$  mkm tashkil etdi. 2-guruhcha chaqaloqlarning asosiy bosh bronx diametri  $2850 \pm 60$  mkm, yuqori bo'lak bronxi  $2100 \pm 45$  mkm, yuqori segmentar bronxlarda  $1160 \pm 50$  mkm, subsegmentar bronxlar  $480 \pm 10$  mkm, terminal bronxlar  $200 \pm 10$  mkm, 2-guruhcha pastki bo'lak bronxlari diametrlari  $1900 \pm 30$  mkm, pastki segmentar bronxlarda  $1400 \pm 120$  mkm, pastki subsegmentar bronxlar  $980 \pm 27$  mkm, pastki terminal bronxlarda esa  $340 \pm 8$  mkm, 3-guruhcha chaqaloqlarning asosiy bosh bronx diametri  $3250 \pm 70$  mkm, yuqori bo'lak bronxi  $2450 \pm 50$  mkm, yuqori segmentar bronxlarda  $1500 \pm 50$  mkm, subsegmentar bronxlar  $740 \pm 10$  mkm, terminal bronxlar  $420 \pm 10$  mkm, 3-guruhcha pastki bo'lak bronxlari diametrlari  $2400 \pm 40$  mkm, pastki segmentar bronxlarda  $1700 \pm 130$  mkm, pastki subsegmentar bronxlar  $1250 \pm 35$  mkm, pastki terminal bronxlarda esa  $380 \pm 9$  mkm tashkil etdi.

**Xulosa:** Shundan xulosa qilamizki, bir yoshgacha bo'lgan chaqaloqlarda bronx daraxtini morfometriya o'rganish nafaqat patologoanatomik xulosalar uchun balki klinitsist vrachlarga bronx daraxti patologiyalarini diagnostikasi va kasalliklarni oldini olish, davolashda o'z samarasini beradi. Tekshiruvimizdagi chaqaloqlar bronx daraxti diametrlari o'lchamlarida aytarli farq kuzatilmadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Satvaldiev R. X, Yeshniyazov D. D, "O'zbekiston statistika axborotnomasi" ilmiy elektron jurnali. 2019 yil, 2-son.

2. Yermolaeva M.M. Kliniko-morfologicheskaya karakteri-stika izmeneniy dыхatelnoy sistemy pri ingyalyatsionnoy travme v periode ojogovogo shoka: Avtoref. diss kand. med. nauk. — SPb, 2004.
3. Shlik I.V, Krilov K.M. Lechenie porajeniy dыхatelных putey u postradavshix s kombinirovannoy termicheskoy travmoy: Ucheb. posob. pod red. prof. S.F. Bagnenko. — NII skoroy pomoshchim. I.I. Djanelidze. — SPb, 2003.
4. Klochkova S.V., Akmatov T.A., Alekseeva N.T., Nikityuk D.B. Bronxialnye jelezы: vozrastnye, regionalnye i individualnye osobennosti stroeniya. //Jurnal anatomii i gistopatologii. 2021;10(3):47-52.
5. Insa Korten, Kathryn Ramsey, Philipp Latzin. Air pollution during pregnancy and lung development in the child. Paediatric Respiratory Reviews 21 (2017) 38–46.
6. Cindy T. McEvoy, MD, MCR, Eliot R. Spindel, MD, PhD. “Pulmonary Effects of Maternal Smoking on the Fetus and Child: Effects on Lung Development, Respiratory Morbidities, and Life Long Lung Health”. Paediatr Respir Rev. 2017 January 21